

OLIV TA'LIM MUASSASALARIGI
KIRUVCHILAR UCHUN

REPITITION TEST

SAVOLLAR KITOBII

SAVOLLAR KITOBII RAQAMI:

673

BLOKLAR:

Biologiya (3.1)

Kimyo (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

+998974567172 raqamiga SMS yuboring
va natijangizni bilib oling!

673*[JAVOBLAR]

Namuna: 673*ABCDBBDA....

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

BIOLOGIYA

1. Trik qazilma xisoblangan hayvonni ko'rsating
A) Pratus;
B) panjaqanotli latimeriya;
C) qadimgi yirtqich tishli kaltakesak;
D) arxeopteriks;
2. Mutualizm munosabatlari to'g'ri berilgan javobni toping?
1) bir xil muhitda o'stirilgan infuzoriyalardan ko'payish jadalligi yuqori bo'lganining saqlanib qolishi; 2) mikoriza; 3) chumoli ichagida bir hujayrali xivchinlining yashashi;
4) baqachanoq mantiya bo'shlig'iga baliqning tuxum qo'yishi; 5) o'simlik va fitofaglar o'rtasidagi munosabat; 6) o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi; 7) odam og'iz bo'shlig'ida og'iz amyobasining yashashi; 8) yirtqich hayvonning o'z o'ljasidan ovqat manbai sifatida foydalanishi; 9) zamburug'larning antibiotik ishlab chiqarishi; 10) dukkakli o'simliklar va tugunak bakteriyalarning o'zaro munosabati; 11) mayda baliqlarning yirik baliqlarga yopishib yashashi; 12) lishaynik tanasida suvo'tlar va zamburug'larning o'zaro munosabati
A) 2, 3, 10, 12 B) 1, 5, 8, 9
C) 2, 4, 10, 12 D) 2, 3, 7, 11
3. Ayirish sistemasi yomg'ir chuvalchangining ayirish sistemasiga o'xshaydigan organizmlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang?
A) chirildoq, maxaon, shira, qovoqari
B) bitiniya, midiya, zaxkash, daryo qisqichbaqasi, lansetnik
C) butli o'rgimchak, kana, bo'ka, iskabtopar, maxaon
D) podalariy, kulrang satir, tovusko'z, apollon
4. 3 3. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari idioadaptatsiyalar natijasida paydo bo'lgan?
1) suyakli baliqlar; 2) pardaqanotlilar; 3) suluv ninachi; 4) yassi chuvalchanglar; 5) toq tuyoqlilar; 6) oltinrang krot; 7) mol kanasi
A) 3,6,7 B) 1,2,3,6 C) 3,4,5 D) 1,4,5,6
5. Yumaloq shaklga ega bo'lgan oqsilni belgilang.
A) hayvon junidagi oqsil
B) gemoglobin
C) ipak qurti ipagidagi oqsil
D) odam sochidagi oqsil
6. Meyoz jarayoni buzilishi tufayli makkajo'xori hujayrasidagi ikkinchi va beshinchi juft xromosomalar jufti tarqalmay bir qutubga o'tdi. Hosil bo'lgan shu spermalar ishtirokida urug'langan endosperm hujayralarida xromosomalar soni nechta bo'ladi?
A) 18 yoki 22 B) 19 yoki 21
C) 29 yoki 31 D) 28 yoki 32

7. Transkripsiya jarayoniga xos xususiyatlarni aniqlang.
1. adenin ribonukleotidlarini uratsil ribonukleotidlariga mos kelishi 2. sitoplazmada borishi 3. yadroda borishi 4. timin dezoksiribonukleotidlarini adenin ribonukleotidlariga mos kelishi 5. i-RNK dagi irsiy axborot polipeptid zanjiridagi aminokislotalar izchilligiga ko'chirilishi 6. i-RNK polimeraza ishroki kechadi 7, dezoksiribonukleotidlardagi axborotni ribonukleotidlarga ko'chirilishi
A) 1,2,6 B) 3,4,6 C) 1,7,5 D) 3,5,7
8. Trias davriga (a), bo'r davriga (b), silur davriga (c) xos aromorfozlarni aniqlang.
1) dastlabki sutemizuvchi hayvonlarning paydo bo'lishi; 2) zamburug'lar paydo bo'lishi; 3) uchuvchi hasharot-suvaraklar, ninachilarning rivojlanishi; 4) bir urug'pallali, ikki urug'pallali sinflarining ko'p oilalari rivojlanishi; 5) sutemizuvchilarning xaltali va yo'ldoshi kenja sinf vakillarining paydo bo'lishi; 6) kaltakesak, toshbaqalar ajdodlarining paydo bo'lishi; 7) ko'p hujayrali yashil suvo'tlarning ba'zilari quruqlikka chiqishga muvaffaq bo'lishi.
A) a- 1,6; b- 4,5; c- 2,7
B) a- 3,7; b- 1,2; c- 4,6
C) a- 2,4; b- 5; c- 3,7
D) a- 3,6; b- 4; c- 1,2
9. Quyosh chiqqan kunlari qorga qalin soya solib, o'zini yirtqich hayvonlarga sezdirib qo'yadigan hayvonni aniqlang.
A) yeriguanasi B) toshbaqa
C) tovushqon D) yumronqoziq
10. Zarpechakning mevasi o'txo'r hayvonlar oziqlanish a'zolarida hazm bo'lmasligi evolyutsiya yo'nalishining qaysi turiga xos?
A) Jronvergensiya B) aromorfoz
C) degeneratsiya D) idioadaptatsiya
11. DNK dagi a,b,c genlardan hosil bo'lgan oqsil monomerlarining umumiy soni 315 ta, b gendan hosil bo'lgan oqsildagi monomerlar soni a gendan hosil bo'lgan oqsil monomerlar sonidan 10 taga ko'p, c gendan hosil bo'lgan oqsil monomerlar sonidan esa 1,25 marta kam. DNK ning a genidagi A lar sonini aniqlang. (Nukleotidlar nisbati a genda A:G -1:3,5; b genda T:S-1:1,5, c genda A:S-2:1 ga teng)
A) 250 B) 180 C) 60 D) 120
12. Itqovun qaysi sinf, oila va bo'limga mansub?
A) magnoliasimonlar, ziradoshlar, gulli o'simliklar
B) magnoliyatoifa, dukkakdoshlar, gulli o'simliklar
C) ikki urug'pallalilar, murakkabguldoshlar, magnoliyatoifa
D) magnoliasimonlar, qovoqdoshlar, magnoliyatoifa
13. O'zgaruvchanlikning qaysi turlari evolyutsiyaning boshlang'ich materiali hisoblanadi?
1) gen mutatsiya; 2) xromosoma mutatsiya; 3) genom mutatsiya; 4) ontogenetik o'zgaruvchanlik; 5) sitoplazmatik mutatsiya; 6) modifikatsion o'zgaruvchanlik; 7) kombinativ o'zgaruvchanlik.

- A) 2,3,4,5 B) 4,5,6 C) 1,2,3,7 D) 3,5,6
14. Qaysi organizmlarda sitokenez jarayoni hujayra sitoplazmasi o'rtasida sitoplazmatik membranadan iborat to'siq hosil bo'lishi bilan boradi.
1) jo'ka 2) lyupin 3) sargan 4) kallima 5) yo'ng'ich
6) rishta 7) semga 8) plaun 9) ayiqtovon 10) skerda
11) buk 12) chupchik 13) ebalak 14) vidra
- A) 3, 4, 6, 7, 12, 14 B) 2, 5, 8, 10, 11, 13
C) 1, 2, 3, 4, 8, 9 D) 1, 5, 6, 7, 9, 12, 14
15. aaBbCCDdEe va AaBbCcDDee genotipli organizmlar nechtdan gameta hosil qiladi va bu ikkalasi uchun umumiy bo'lgan gameta(lar)ni ko'rsating,
A) 8 tadan; abCDe va aBCDe
B) 8 tadan; AbCDe
C) 16 tadan; aBCDe va abCde
D) 16 tadan; abCDe va aBCDe
16. Odam organizmidagi gistologik(a) va anatomik(b) belgilarni ajrating.
1.yetilgan eritrositlar yadrosiz bo'lib, o'rtasi botiq, yumoloq shaklda bo'ladi. 2.yelkaning orqa qismida 3 boshli muskul joylashgan 3.trapedsiyasimon muskul gavdani orqa sohasida joylashgan 4.silliq tolali muskullar duksimon shaklda bo'lib hujayrasida bitta yadro bo'ladi. 5.nerv hujayrasi kalta dendrit va uzun akson iborat 6.neyrogliya bosh va orqa miya atrofida joylashgan
- A) a-1,4 b-2,6 B) a-4,5 b-2,3
C) a-1,3 b-4,6 D) a-3,4 b-1,6
17. Fenotipik(a) va genotipik(b) xususiyatlarni aniqlang.
1.urug'lanish jarayonida jinsiy hujayralarni qo'shilishi 2.jismoniy mashq natijasida skelet muskullarini rivojlanishi 3.jingalak va silliq sochli ota-onadan taram-taram sochli farzandni tug'ilishi 4. xromasoma sonining ortishi 5.o'simliklarda mineral o'g'it solish natijasida 6.quyosh nuri ta'sirida terida pigment hosil bo'lishi
- A) a-2,4 b-1,3 B) a-2,6 b-1,3
C) a-5,6 b-1,2 D) a-2,6 b-3,5
18. Do'lanadagi oila (a) sinf (b) ga xos xususiyatlarni aniqlang.
1) murakkab gulqo'rg'on; 2) ildiz tizimining turi; 3) barglarining tomirlanishi; 4) meva turi; 5) urug' murtakining tuzilishi; 6) poyaning ichki tuzilishi; 7) barglarning novdada joylashishi
- A) a-1,7; b-4,5 B) a-3,5; b-4,2
C) a-1,6; b-3,4 D) a-4,7; b-5,6
19. Tovuq oyog'ida patning bo'lishi ikki juft polimer nokumulyativ dominant genlarga bog'liq. Agar genotipda ulardan bittasi bo'lsa ham tovuq oyog'ida pat hosil bo'ladi. Polimer genlar retsessiv holatda bo'lsa, pat rivojlanmaydi. Oyog'ida pati bor tovuq oyog'ida pati yo'q xo'roz bilan chatishtirilganda F₁ da 120 ta digeterozigota parranda, F₂ da 6400 ta parranda olingan. F₂ avlodning nechitasi keyingi avlodda genotip bo'yicha ajralish bermaydi?
A) 1050 B) 4800 C) 400 D) 1600

20. Translatiya jarayoniga xos bo'lmagan xususiyatlarni aniqlang.
1. adenin ribonukleotidlarini uratsil ribonukleotidlariga mos kelishi 2. sitoplazmada borishi 3. yadroda borishi 4. timin dezoksiribonukleotidlarini adenin ribonukleotidlariga mos kelishi
5. i-RNK dagi irsiy axborot polipeptid zanjiridagi aminokislotalar izchilligiga ko'chirilishi
6. i-RNK polimeraza ishroki kechadi 7. dezoksiribonukleotidlardagi axborotni ribonukleotidlarga ko'chirilishi
A) 2,5,1 B) 3,2,6 C) 4,3,7 D) 3,4,1
21. Molodillo o'simligi qanday yo'l bilan ko'payadi
A) ajratuvchi kurtaklari; B) tugunaklari;
C) ildizpoyasi; D) novdalari;
22. Quyidagi javoblardan qaysilari orasida suyuqlik mavjud?
a) periost bilan muskulning orasida b) fassiya bilan muskul payining orasida c) miokard bilan perikard qavat orasida d) epikard bilan tashqi perikard qavatlari orasida e) tashqi va ichki plevra qavatlari orasida f) orqa miyani o'rab turgan pardaning tashqi va o'rta qavatlari orasida j) orqa miyani o'rab turgan pardaning o'rta va ichki qavatlari orasida
- A) b, e, d, f B) a, c, f
C) b, d, j D) a, c, e
23. Barg ba'idiga ega bo'lgan (I) va o'troq bargli (II) o'simliklarni aniqlang.
1) o'rik; 2) anjir; 3) gulsafsar; 4) lola; 5) qovun; 6) makkajo'xori
- A) 1-2,5,6,11- 1,3,4
B) I- 1, 2; II - 3, 4, 5, 6
C) I- 1, 5, 6; II - 2, 3, 4
D) I- 1, 2, 5; II -3,4,6
24. Quyidagi organizmlar hujayrasi qachon 14 ta xromatidali xromasomaga ega bo'lmaydi?
1. no'xat mikrosporasini hosil qiluvchi hujayra 2. bug'doy mikrosporasini profaza2 bosqichida 3. no'xatni arxeosporasini metafaza1 bosqichida 4. bug'doyning tuxum hujayrasida
A) 3,2 B) 2,4 C) 3,4 D) 1,3
25. Kasatkaning (a) va dengiz toshbaqasining (b) oldingi suzgichlari qaysi a'zodan hosil bo'lgan va ular qanday a'zolar (c) hisoblanadi?
1) oldingi oyoqlarning o'zgarishidan; 2) ko'krak bo'limining orqa qismidan; 3) qorin bo'hmining orqa qismidan; 4) orqa oyoqlarning o'zgarishidan; 5) analogik; 6) gomologik
A) a-4, b-3, c-5 B) a-1, b-2, c-6
C) a-1, b-1, c-6 D) a-4, b-1, c-5
26. Daryo qisqichbaqasining boshining oldingi tomonida joylashgan mo'ylov va oyoqlari sirtidagi tukchalar qanday vazifani bajaradi
A) ta'm bilish va tuyg'u;
B) hid bilish va tuyg'u;
C) eshtish va tuyg'u;
D) eshtish va muvozanat;

27. Odam tanasining qaysi qismlarida elastik tolali biriktiruvchi to'qima uchramaydi (I) va uchraydi (II)?
1) ikki boshli muskulning dum qismi; 2) terining epidermis qavati; 3) kovak venaning ichki devori; 4) kekirdak devori; 5) orqa miyaning kulrang moddasi; 6) uch boshli muskulning bosh qismi; 7) yurak devorining o'rta qismi; 8) qon plazmasi.
A) I- 1,4,6; II- 3,5,8
B) I- 3,5,7; II- 1,4,6
C) I- 2,4,7; II- 3,5,8
D) I- 2,5,6; II- 1,4,6
28. Qaysi organizmlar ontogenezi ham lichinkali, ham lichinkasiz tipda amalga oshadi.
1) mindano 2) ay-ay 3) kanno 4) kakadu 5) semga 6) manta 7) suvke 8) tilyapiya 9) mita 10) hasva
A) 1,5,6,7,8 B) 1,3,5,6,8,10
C) 1,5,6,8 D) 1,3,5,7,9
29. Doktor Rustamni tekshirish natijasida uning qon plazmasida agglutinini umuman bo'lmashligi lekotsitlar soni 6,5 mingta eritrotsitlar esa 3,5 mln bo'lishini aytadi. Rustamda yana esda saqlash pastroq va milklarni qonashi kuzatilar edi. Unga tashxish qo'yishsa u qaysi qon guruhlardan qon olishi (a) undagi kasallik (b) va qaysi vitamin yetishmasligi (c) ni aytgan?
A) a-faqat II; b-leykopeniya; c-D,A
B) a-I va II, III, IV; b-anemiya; c-B₁,C
C) a-faqat IV; b-leykotsitoz; c-D,PP
D) a-faqat I; b-gemofilya; c-A,K
30. Plaunlarga xos ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) sporali o'simlik; 2) ochiq urug'li o'simlik; 3) suvni ko'p yo'qotsa ham hayot faoliyatini saqlaydi; 4) toshko'mir davrida ko'plab o'sgan; 5) devon davrida dastlabki o'rmon hosil qilgan; 6) ildizi uzun va chuqur joylashgan; 7) urug'idan ko'payadi.
A) 2,4,5 B) 1,6,7 C) 1,3,5 D) 2,3,4

KIMYO

31. Tabiiy polimerni ko'rsating.
A) polietilen B) kraxmal
C) etilen D) novolok
32. Tarkibida $144,48 \cdot 10^{23}$ ta atomi bor SO_3 suvda eritilganda $198,66 \cdot 10^{23}$ ta atom tutgan oleum eritmasi hosil bo'ladi. Olingan oleum tarkibidagi O atomlar sonini aniqlang.
A) $126,42 \cdot 10^{23}$ B) $96,32 \cdot 10^{23}$
C) $72,24 \cdot 10^{23}$ D) $24,08 \cdot 10^{23}$
33. Gustavson usuli bo'yicha 2,4-dixlorgeksandan qanday sikloalkan olinadi?
A) izopropilsiklopropan
B) 1,1-dimetilsiklobutan
C) izopropilsiklobutan
D) 1-metil, 2-etilsiklopropan
34. $\text{CrCl}_3 + \text{NaClO} + \text{NaOH} \rightarrow \dots$ reaksiyasini tugallang

va chap tomondagi koeffitsiyentlar yig'indisini toping.

- A) 16 B) 13 C) 15 D) 22
35. BeCl_2 , BeF_2 va CO_2 molekullar uchun quyidagi qaysi xususiyat(lar) umumiy emas?
1) markaziy atomning gibridlanishi; 2) markaziy atomning valentligi; 3) molekulaning fazoviy strukturasi;
4) bog' qutbli, molekula qutbsiz bo'lishi; 5) valent burchak qiymati
A) 1, 2, 4 B) 5 C) 2 D) 1, 3, 4, 5
36. $3p^1$ va $3p^4$ orbitaldagi oxirgi elektronlaridagi qaysi kvant sonlari har xil?
A) bosh va orbital B) spin
C) magnit D) spin va magnit
37. **Molekular kristall panjarali moddalarni aniqlang.**
1) CuSO_4 ; 2) H_2S ; 3) Ge; 4) KOH; 5) B; 6) HCl; 7) Cu; 8) P₄; 9) Zn;
A) 1,4 B) 2,6,8 C) 3,5 D) 7,9
38. **Massasi 6 bo'lgan magniy karbonat angidrid gazida yondirilganda hosil bo'lgan metalmas necha gramm azot bilan reaksiyaga kirishadi?**
A) 3,5 B) 1,75 C) 7 D) 5,25
39. Organik modda X tarkibida 15,686% kislorod bor. U Na bilan sekin 2% li KMnO_4 eritmasi ta'sirda o'zgarishga uchramaydi. HCl bilan shiddatli reaksiyaga kirishadi. Yonganda karbonat angidrid va suv hosil qilsa, 1 va O atom borligini etiborga olib, uning tuzilishini aniqlang.
1) 3-metil pentanol-3 2) 2-metil pentanol-4 3) 2, 3-dimetilbutanol-2 4) 3, 3-dimetilbutanol-2
5) 2-metil pentanol-2 6) 2-metil pentanol-3
A) 2, 4, 6 B) 1, 3, 5
C) 3, 4, 5 D) 2, 5, 6
40. 50,2 g 67,73 %li kumush nitrat eritmasi to'liq elektroliz qilinganda tarkibida $15,05 \cdot 10^{23}$ ta atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 49,6 B) 65,88 C) 35,85 D) 58,33
41. **Ketonlar konsentrlangan sulfat kislota yoki ishqorlar ta'sirida krotan kondensatsiyasiga kirishadi. 69,6 g asetondan 2-bosqichda necha gramm organic modda hosil bo'lishini aniqlang. ($\eta=75\%$)**
A) 44,1 B) 58,8 C) 56,7 D) 75,6
42. **Li, Na va Ca metallarining 14 g aralashmasi suvda eritildi. Bunda 8,96 litr(n.sh) gaz ajralib chiqdi va 0,2 mol NaOH hosil bo'ldi. Dastlabki aralashmadagi Ca ning massasini (g) toping.**
A) 8 B) 6 C) 12 D) 4
43. **Quyidagi oqsidlarda kislota hossa qanday o'zgaradi?**

- MnO₂ $\xrightarrow{1\ 1}$ MnO $\xrightarrow{2\ 2}$ MnO₃ a) ortadi; b) kamayadi;
A) 1a, 2b B) 1b, 2b C) 1b, 2a D) 1a, 2a
44. Tarkibida Ag, Al, Zn, Fe saqlagan 322 g qotishmaga NaOH eritmasi ta'sir ettirilganda 112 l (n.sh.da) gaz ajraladi va 138 g qoldiq erimay qoladi, huddishunday massali namunaga HCl ta'sir ettirilganda 145,6 l (n.sh.) da gaz ajraladi va eritmada qoldiq qoladi. Qotishma tarkibidagi d elementlar massasini aniqlang?
A) 268 B) 108 C) 56 D) 130
45. Noma'lum II valentli oksidining ekvivalent molyar massasi 20 ga teng bo'lsa, nom'alum elementni aniqlang.
A) alyuminiy B) magniy C) kalsiy D) azot
46. Quyidagi berilgan birikmalarda bog'ning qutbliligi qanday o'zgaradi? NH₃ $\xrightarrow{1\ 1}$ HF $\xrightarrow{2\ 2}$ CH₄ $\xrightarrow{3\ 3}$ H₂O
a) ortadi; b) kamayadi;
A) 1a, 2b, 3a B) 1a, 2b, 3b
C) 1b, 2a, 3b D) 1b, 2a, 3a
47. **Ketonlar konsentrlangan sulfat kislotasi yoki ishqorlar ta'sirida krotin kondensatsiyasiga kirishadi. 86,4 g butanonidan 2-bosqichda necha gramm organik modda hosil bo'lishini aniqlang. ($\eta=0,75$)**
A) 56,7 B) 75,6 C) 69,6 D) 58,8
48. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 9800 ta uglerod atomi bo'lsa, shu DNK ning qo'sh spirali tarkibida nechta vodorod bog' mavjud? (nukleotidlarning 20%ini guanin tashkil etadi)
A) 1300 B) 1000 C) 1200 D) 800
49. Is gazi va vodorod aralashmasi katalizator ustidan o'tkazilganda alkanlarning tarkibidagi uglerod atomlari soni ortib boorish tartibida 3:2:1 nisbatda metan, etan va propan gazlari aralashmasi hosil bo'ladi. Dastlabki aralashmaning geliyga nisbatan zichligini toping.
A) 33 B) 9,43 C) 16,5 D) 2,3
50. NH_{3(g)}+Cl_{2(g)}=N_{2(g)}+HCl_(g) reaksiya hajmi 0,009m³ bo'lgan idishda olib borildi. Kimyoviy muvozanat qaror topganda moddalar kontsentratsiyalari [NH₃]=0,4; [Cl₂]=0,2; [HCl]=0,6 mol/l bo'lsa, boshlang'ich moddalar miqdorini (mol) hisoblang.
A) 5,4; 4,5 B) 1,8; 2,7
C) 0,2; 0,3 D) 0,6; 0,5
51. Ketening formulasini aniqlang.
A) CH₂=C=O B) bunday birikma mavjud emas
C) CH₃COCl D) (CH₃CO)₂O
52. **Akaritsid qishloq xo'jaligid qanday maqsadda foydalaniladigan kimyoviy modda hisoblanadi?**
A) kapalaklarga qarshi
B) kasallik tarqatuvchi zamburug'larga qarshi
C) zararli kemiruvchilarga qarshi
D) o'simlik bargini quritish uchun

53. **5 litr metan va etilen aralashmasi tarkibidagi uglerodning massasi vodorodning massasidan 4,8 marta kata bo'lsa, gazlar aralashmasining molyar massasini (g/mol) aniqlang.**
A) 20 B) 23,2 C) 24 D) 20,8
54. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,3 B) 0,2 C) 0,1 D) 0,4
55. Quyida keltirilgan molekullarni neytronlar soni ortib boorish tartibida joylashtiring.
1) C₁₇O₂; 2) N₂¹⁷O; 3) C₄H₁₀; 4) C₃D₈; 5) T₂¹⁷O₂;
A) 5,2,3,1,4 B) 5,1,2,4,3
C) 1,3,2,5,4 D) 2,3,1,4,5
56. Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 12 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) pentan B) propan C) butan D) etan
57. Sxemadagi barcha noma'lum moddalar tarkibida mis borligi ma'lum bo'lsa, A, D, F moddalarni aniqlang.
CuSO₄ $\xrightarrow{NaOH\ NaOH}$ A $\xrightarrow{HCl\ HCl}$ B $\xrightarrow{AgNO_3\ AgNO_3}$ C $\xrightarrow{t\ t}$ D
 $\xrightarrow{NH_3, t\ NH_3, t}$ E $\xrightarrow{CuCl_2\ CuCl_2}$ F
1) CuCl; 2) CuCl₂; 3) Cu(NO₃)₂; 4) CuO; 5) Cu;
6) Cu(OH)₂; 7) CuNO₃; 8) CuOH
A) 2,4,5 B) 6,4,1 C) 6,3,1 D) 8,7,1
58. Kaliy va magniy gidrofosfatlar aralashmasidagi metallarning massasi, aralashmaning massasidan 480g ga kam bo'lsa, aralashmadagi moddalarning mol nisbatini aniqlang. m(K+P)=233 g
A) 1:2 B) 1:0,5 C) 1:4 D) 1:2
59. Reaksiya natijasida 19,2 g kislorod molekulasini hosil bo'lsa, KClO₃ ning parchalanishi uchun sarflangan issiqlik miqdorini kkal da aniqlang. KClO₃, KCl ni hosil bo'lish issiqliklari mos ravishda 391 kJ, 437 kJ. (1 kkal=4,184 kJ)
A) 354 B) 60,23 C) 4,5 D) 252
60. 0,3 mol Na₂SO₄·10H₂O tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib 1,5 molyalli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok bilan 19300 sekund davomida elektroliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang.
A) 96,4 B) 182 C) 164 D) 246,4

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Yomg'ir - suyuq tomchi holidayda atmosfera yog'ini. Ushbu parcha qaysi uslubga mansub?
A) ilmiy uslub B) rasmiy uslub
C) badiiy uslub D) publitsistik uslub
62. Javoblarning qaysi birida tasviriy ifoda ma'nosi noto'g'ri berilgan?
A) Pilla – kumush tola

- B) Farg'ona – yashil vodiya
C) Pomir – dunyo tomi
D) Makkajo'xori – oltin boshqoq
63. Ro'paramda esa kamida qirqni qoralab qolgan, chakka sochlariga oq oralagan, ko'zlarida biror ma'no yo'q, lablari po'rsildoq kimsa o'tirardi. Ushbu gap turini aniqlang.
A) aralash murakkab qo'shma gap
B) uyushiq bo'lakli sodda gap
C) bog'lovchisiz qo'shma gap
D) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap
64. Qaysi qo'shma gapda ergash gapning kesimi qo'shma fe'ldan iborat?
A) Olima vazifani bajardi, shuning uchun ustozidan gap eshitmadi.
B) Qog'ozga tushirilmagan ilm unutilib ketadi, shuning uchun bilganlarningni kelgusi avlodlarga yozib qoldirishga harakat qil.
C) Maktabimizda sport klubi faoliyat olib bormoqda, shuning uchun klub a'zolari turli musobaqalarda yaxshi natijalarni qo'lga kiritishmoqda.
D) O'qituvchi bolalarni nazmdan xabardor etishni o'z burchi hisoblardi, shu bois "Guliston" va "Bo'ston" kabi kitoblarni mustaqil mutolaa qilishga ruxsat bergan edi.
65. Qaysi gapdagi sifat to'ldiruvchi va aniqlovchining belgisini bildirib kelgan?
A) Baland-past devorlar orasidagi mevalarning oq, pushti, qizil gullariga tabassum bilan qaraysan.
B) Mahallaning oq-qora bolalari shoxdan shoxga tirmashadi.
C) Shoshilinch, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik - nodonlar ishi.
D) Goho-goho keladigan uzuq-yuluq xabarlardan boshqa aloqa yo'q.
66. Fonetik yozuv asosida yozilgan fe'l ishtirok etgan qatorni aniqlang.
A) Qarindoshingni yomonlab, Qaydan tug'gan toparsan?
B) Chin do'st uldirkim, do'stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham uzrini qabul qiladi.
C) Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi.
D) Aqlliga aytdim, angladi-bildi, Aqlsizga aytdim, shaqillab –kuldi.
67. Uyushikli, undalmali, kiritma gapli sodda gapni aniqlang.
A) Aka, men uy olsam, sizni ham, yangamni ham, bu yerlardan (o'zingiz bilasiz-ku bu joylar qanaqa ekanini) olib ketaman.
B) Akbarali, senga urg'uning ikki turi to'g'risida (biz bu haqda avvalgi darsda so'zlashgan edik) qisqa, ammo ancha mazmunli ma'ruza tayyorlab kelish topshiriladi.
C) Xoh ishon, xoh ishonma, do'stim, bizga Sobitxon (o'zing u qanaqaligini bilasan) yordam qo'lini cho'zmadi.
D) Kastumiga birda qizil, birda sariq gul taqib yuradigan Sohibiy (Alimardon aka) nimalar bilan shug'ullanishini bilasizmi, uka?
68. G'arbiy adabiy tilga qaysi til kiradi?
A) qorluq-qipchoq B) qipchoq-o'g'uz
C) uyg'ur-o'g'uz D) qorluq-uyg'ur
69. Qaysi so'zlar chiziqcha bilan yoziladi?
1) yangidan yangi; 2) dum dumaloq;
3) dam badam ; 4) ochiqdan ochiq
A) 1,2,4 B) 2,3 C) 1,2,3,4 D) 1,2,3
70. «Boburnoma»da tarn, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ushbu gapda undov belgisining qo'llanilish sababini izohlang.
A) matn ichidagi so'z alohida ta'kidlab, ajratib ko'rsatilgani uchun
B) so'zlovchining cheksiz his-hayajonini ifodalash uchun
C) kuchli his-hayajon bilan aytilgani uchun
D) matn ichidagi so'z tushunarsiz bo'lgani uchun
71. Noto'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.
xohlamoq, hijil, xasp'o'shlamoq, shavqat, tamosha, avf, muzafot, taqazo
A) 3 B) 6 C) 4 D) 5
72. Berilgan to'g'ri hukmni aniqlang.
A) Ajratilgan izohlovchilar, ko'pincha, aniqlovchiga taalluqli bo'ladi.
B) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan qo'shtirnoq bilan ajratiladi.
C) Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanmishdan keyin keladi.
D) Ajratilgan bo'lak yozuvda vergul, tire va ba'zan ikki nuqta bilan ajratiladi.
73. Ey inson har bir so'zni o'ylab gapir; tiling seni yo saodatmand etadi, yoxud halokatga boshlaydi. Ushbu gapda so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlarning nechtasining asosi bir bo'g'indan iborat?
A) 3 B) 2 C) 4 D) 1
74. Qaysi gapda amaliyotga N.M.Karamzin tomonidan kiritilgan tinish belgisi mavjud?
A) Maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz.
B) Tiniqib uxla: kun bo'yi tetik bo'lasan.
C) Aslida hammamiz ham bu "o'yin"lardan xabardor edik.
D) Onalarga qulluq qilmaslik mumkinmi?!
75. Abror qizni darrov tanidi u qo'shni mahalladagi do'konda ishlar edi. Ushbu gapda qaysi tinish belgi tushirib qoldirilgan?
A) vergul B) tire
C) nuqtali vergul D) ikki nuqta
76. Biringiz boqiysiz, biringiz - balki puch, Biringiz shodliksiz, biringiz – o'kinch, Biringiz baxtlisiz, biringiz - baxtsiz. Biringiz yarador, o'lgansiz vaqtsiz. Ushbu she'riy parchada sifatdan yasalgan ot necha o'rinda qo'llangan?
A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

77. Tarkibida yordamchi soʻzlardan faqat sof yuklama qatnashgan gapni toping.
A) Bu ishlar faqat menga kerak emas.
B) Kaltafahmlargina odamlarning kamchiligini koʻradilar-da.
C) Faqat shundan keyingina kitob tokchamizda jimgina turadigan "Tafakkur gulshani"ning shu kungacha bilmagan sahifalarini ham ochamiz.
D) Sen-chun jonim fido, aziz Vatanim!
78. Quyidagi gapda sodda yasama soʻzlarning qaysi soʻz turkumlaridan yasaliş holatiga koʻra ketma-ketligi toʻgʻri keltirilgan javobni toping. Barchamizga maʼlumki, inson oʻzligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida vatanga muhabbat tuygʻusi ildiz otib ulgʻaya boradi.
1) ot; 2) sifat; 3) feʼl; 4) olmosh
A) 2,3,4,1 B) 1,3,4,2
C) 1,2,3,4 D) 4,1,3,2
79. Qaysi soʻzlarning ikkinchi boʻgʻinida **u** yoziladi?
1)kul..shmoq 2)yug..rmoq 3)bur..lmoq 4)ulg..rmoq
A) 2,3,4 B) 2,4 C) 1,2,3,4 D) 2,3,
80. Quyidagi soʻzlarning qaysi birida shakldoshlik (omonimlik) ot va feʼl turkumi oʻrtasida vujudga kelmaydi?
A) tut B) tom C) tush D) tor
81. "Chirishbozlik" soʻzining oʻzbekcha muqobili...?
A) koʻpkari, uloq oʻyini B) topqirlik
C) urinish, harakat qilish D) bahs boylash
82. "Bemor" hikoyasida chigit poʻchoq va kunjara bilan savdo qiladigan boy kim edi?
A) Abdugʻaniboy B) Rajabxoʻjaboy
C) Odilxoʻjaboy D) Mirzakarimboy
83. "Al-adab al-mufrad" asarida kimda shu xislat boʻlmasa, u aybli va nuqsonli boʻladi deb nima aytilgan?
A) aqllilik B) ilmlilik
C) muloyimlik D) chiroylilik
84. «Bu – men tugʻilgan tuproq»(Mirtemir) sheʼrida nima sadaf misol oq deb taʼriflanadi?
A) guruch. B) paxta.
C) juvari. D) tishlar.
85. Oʻrik va soya obrazlari orqali doʻst, soxta doʻst va doʻst tanlashda adashmaslik kerak degan gʻoyalarni badiiy ifodalagan shoir kim?
A) A.Muxtor B) A.Oripov
C) Avaz Oʻtar D) E.Vohidov
86. "Bolaning koʻngli podsho" hikoyasida bolaning uyidan otilib chiqqan oʻrtogʻining ismi kim?
A) Adham. B) Aʼzam. C) Akram. D) Aziz.
87. «Shajarayi turk» asarida Qoraxon va Oʻguzxon oʻrtasidagi jang qanday yakunlanadi?
A) Oʻgʻuzxonning qoʻli baland keladi
B) Ular oʻrtasida sulh tuziladi
C) Kuchlar teng keladi
D) Qoraxonning qoʻli baland keladi
88. "Boburnoma"da Fargʻona viloyatining nechta shaharchasi borligi aytilgan?
A) 5 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 4 ta
89. "Qoralar falsafasi" asarining muallifini toping.
A) Nodira B) Dilshodi Barno
C) Anbar Otin D) Uvaysiy
90. Qaysi bitiktosh "Tangri yashatuvchidir" deb tugallanadi?
A) Bilga xoqon B) Toʻnyuquq
C) Eltarish xoqon D) Kul Tigin